

SALOHIDDIN AYYUBIY VA UNING ISLOM DUNYOSIDAGI O'RNI

Mamasidiqov Fazliddin Muzaffar o'g'li

Namangan davlat universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom muhim o'ringa ega bo'lgan yirik sarkarda va davlat arbobi Sulton Salohiddin haqida so'z boradi. Uning hayot yo'li, yoshlik yillari, shaxsiyati haqida va musulmon dunyosidagi tutgan o'rni haqida ayrim malumotlar keltirib o'tilgan

Kalit so'z: Damashq, Najmiddin Ayyub ibn Shozi, Salib yurishlari, Quddus, Tikrit, 1193-yil 4-mart

Salohiddin Ayyubiy XII asrning yirik musulmon rahbarlaridan hisoblanadi. Yevropa va rus manbalarida uni Saladin deb atash odat bo'lgan. Ammo uning asl ismi Al-Malik an-Nosir Saloh ad-Duniya vad-Din Abul-Muzaffar Yusuf ibn Ayyub bo'lib, Salohiddin (Saloh ad-Din) faxriy laqabi bo'lib, "iymon taqvosi" degan ma'noni anglatadi. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, uning asl ismi Yusuf ibn Ayyubdir. Ayyubiy hijriy 532-yili (milodiy 1138-yilda) Iroqning Tikrit shahrida tug'ilgan va hijriy 589 yil (milodiy 1193-yil) 4-mart kuni Damashqda vafot etgan. U ko'p yillar mobaynida Misr va Shom hukmdori bo'ldi. Misr, Suriya, Yamanni 75 yil boshqargan (1174-1249) Ayyubiylar sulolasining asoschisi hisoblanadi. Musulmon dunyosida XII asrda bo'lib o'tgan Salib yurishlaridagi bir qator g'alabalari hamda Baytul Maqdis (Quddusi sharif) ning ikkinchi fotihi sifatida mashhur.

Uning buyuk xizmatlaridan biri shunda ediki, salib yurishlarini ochib, musulmon o'lkalarining kattagina qismini egallab olgan nasroniylarga qarshi kurashga turklar, kurdlar va arablarni birlashtira oldi.

Ayrim manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Salohiddin va Ayyubiyalar kelib chiqishiga ko'ra kurd bo'lgan. Lekin yana bir tahmin ham mavjud bo'lib, unga ko'ra Salohiddin kurdlar orasida yashagan arablardan bo'lgan. Biroq ko'pchilik manbalarda uning otasi Najmiddin Ayyub ibn Shozi kurdlarning Xazboniy qabilasidan ekanligi ta'kidlanadi.¹

Salohiddinning hayoti va ijodi ko'plab manbalardan ma'lum, ularning aksariyati u bilan bir vaqtda yashagan odamlar tomonidan yozilgan. Ushbu manbalar orasida Salohiddin tarixchilari va biograflari tomonidan yozilgan manbalar alohida o'rin tutadi. Ushbu yozuvchilar orasida Salohiddinning maslahatchisi va ustози Bahouddin ibn Rofe, asli musullik tarixchi Ibn al-Asir, shuningdek uning shaxsiy kotibi Qozi Fozillarning asarlari muhim hisoblanadi.² Ana shu ma'lumotlardan ayon bo'lishicha, Salohiddinning bobosi Shozi Armanistonga qarashli Ovin shahri yaqinidagi qishloqda yashagan va Salohiddinning otasi Ayyub shu yerda tug'ilgan. Shozi ikki o'g'li—Ayyub va Shirkuh tug'ilganidan keyin bu yerni tark etib avval Bag'dodga keyinchalik esa Tikritga ko'chib o'tgan va vafotiga qadar Tikritda muqim yashab qolgan. Salohiddinning otasi Ayyub va amakisi Shirkuh Musul hokim Zanjiyning xizmatida bo'lib, ikkovi ham yirik sarkarda hisoblangan. Salohiddin bolaligi haqida bizgacha qisman ma'lumotlar aniq va rivoyatlar holida yetib kelgan. O'zidan oldingi uch tabaqa ajdodlari yollanma askar va harbiy sarkarda bo'lgan Salohiddin yoshlik chog'larida harbiy san'atga uncha qiziqmagan, boshqa ilmlarni egallashga ishtiyoqmand bo'lgan. Keyinchalik qarindoshlari ta'sirida harbiy ishga kirib keladi. Amakisi Shirkuh qo'l ostida harbiy ishlarni o'rgana boshlaydi va 1169-yilda ular birgalikdan Misrni zabt etishadi.

Sultonning hasbi holini yozib yurgan kotiblardan Vahromiyning aytishicha, Salohiddin Ayyubiy harbiy san'atdan ko'ra, Evklid va Xorazmiy asarlarini yaxshi bilar, handasani chuqur o'rgangan edi. U qurolli qo'shin safiga kirishdan din

¹ <https://medinaschool.org>

² A.M.Tursun. Salohiddin Ayyubiy. –T.: "QAQNUS MEDIA". 2018. 20-b.

ilmlarini o'rganishga ko'proq moyil edi. Bunga balki nasroniylarning birinchi salib yurishi chog'ida Quddusni bosib olishgani o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lishi ham mumkin.

Salohiddin Islom dini asoslaridan tashqari arablar shajarasi, mashhur kishilarning hasbi hollari va tarixi bilan qiziqardi. U Abu Tammomdan "Hamas"ini (o'n tomlik arab she'riyati saylanmasi) yoddan bilgan. Bundan tashqari, Salohiddin hofiz bo'lgan, ya'ni Qur'onni yoddan bilgan.

Ibn Shaddod kunyasi bilan tanilgan Xalab qozisi Bahouddin Abul Maxasin Yusuf ibn ibn Tamimning "An-Navodirus-Sultoniyya val-maxasinul-Yusufiyya" ("Sulton haqida nodir rivoyatlar va Yusufning go'zal sifatleri") kitobida keltirishicha, "Yusuf yoshligidanoq islomiy bilimlardan bahramand bo'lgan, Qur'onni karimdan ko'plab suralarni yod olgan. Bolaligida uni harbiy mahoratdan ko'ra ko'proq Islom fihi va shariat ahkamlari qiziqtirardi". Sunniylarga mansub Salohiddin Ayyubiy yaxshi ta'lim ko'rdi, uning islomga mehri juda yuksak edi. Shu bois ham u kelgusida buyuk Islom xaloskori, muttaqiy va obid zot bo'lib yetishdi deyishimiz mumkin. U Qur'on o'qishni, o'rganishni va imomning tajvid bilan qiroat qilishini tinglashni nihoyatda sevar, o'zi ham keyinchalik Qur'onni to'la yod olgan edi. Birorta majlis yopki qabul marosimlarini Qur'on tilovatisiz boshlamas edi. Shayx Qutbiddin Naysoburiy Sulton Salohiddinning aqidasi, taqvosi va obidligi haqida shunday yozadi: "Sulton barcha farz namozlarini jamoat bilan ado etishga tirishar, ravotiblarni (sunnatlarni) ham qoldirmas, kechalari tahajjud namozini ham iloji boricha ado etishga harakat qilar edi. U hayotida namozlarini faqat uch kungina, o'shanda ham umri oxirida qattiq betoblanib, xushdan ketib qolgandagina ado eta olmay qolgan. Harbiy yurishlar paytida namozlarini otdan maxsus tushib, xushu va xuzu bilan o'qirdi. Sulton umri nihoyasiga qadar zakot berish uchun nisobga yetuvchi boylikka ega bo'lmagan, merosxo'rlariga boylik qoldirmay, omonatini egasiga topshirgan".³

³ A.M.Tursun. Salohiddin Ayyubiy. –T. "QAQNUS MEDIA". 2018. 21-b.

Salohiddin Ayyubiy Bag`dodni, Misrni, Shomni, Yamanni, Hijozni, Tunisni va Halabni, bir so`z bilan aytganda, Islom davlatlarining bosh markazlarini qo`lga kiritgan bo`lsa ham, ana shunday buyuk fohih, ulug` hukmdor, amalda mustaqil saltanat yuritgan bo`lishiga qaramasdan xalifalik da`vo qilib chiqqan emas, xalifalik davlati tuzishga harakat qilgan emas.

Salohiddin Ayyubiy besh vaqt namozni jamoat bilan masjidida o`qishni aslo tark qilmagan, sahardan oldin turib, tahajjud namozini o`qishga doim harakat qilgan, vafotidan oldin kasalligi davrida tabiblar turishi mumkin emasligini aytsa ham jamoatda tikka turib namoz o`qishni kanda qilmagan. Salohiddin Ayyubiy farzandlaridan biriga bunday deb vasiyat qilgan: «Seni Allohning taqvosisiga vasiyat qilaman. U barcha yaxshilikning boshidir. Qon to`kishdan, unga kirib qolishdan, qon to`kishga harakat qilishdan mutlaqo hazar qil! Chunki, qon hech qachon «uxlamaydi», yo`q bo`lmaydi. Senga xalqning qalblariga e`tiborli bo`lishga, ularning ahvoliga nazar solishga vasiyat qilaman. Hech kimga g`azab qilma!».⁴

Salohiddin Ayyubiy Damashqda hijriy 589- yil Safar oyining 27-kunida (milodiy 1193-yil 4-mart), salibchilar bilan shartnoma tuzgandan so`ng ko`p o`tmay vafot etdi. O`sha paytda uning nomidan Misr, Liviya, Yaman, Falastin, Suriyada, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Anadolida, Malatya va Ahlatgacha va Shimoliy Iroqdan Hamadonga qadar xutba o`qilgan. Uning o`rnini katta o`g`li al-Malik ul-Afdal Ali egalladi.

U katta maydonni qamrab oladigan siyosiy ittifoqni tashkil etgan buyuk davlat arbobi . Ushbu siyosiy birlik Ayyubiylardan keyin mamluklar bilan davom etdi va 1517 yilda Usmoniylar hukmdori Sulton Salim tomonidan Qohirani bosib olish bilan yakunlandi. Salohiddin kuchli armiyani, yaxshi ishlaydigan davlat tashkilotini yaratdi va Fotimiylar xalifaligini ag`darish bilan mintaqadagi mafkuraviy tarqoqlikni tugatdi. Uning ikkinchi eng katta yutug`i - Quddus va salibchilar qo`lidagi ko`plab joylarni

⁴ <https://ahlisunna.uz>. Hamidulloh Beruniy

ozod qilishi edi. Quddusni qaytarib olish uni Islom olamining eng taniqli qo'mondonlaridan biriga aylantirdi.

Qurilish va me'morchilik faoliyatiga yaqindan qiziqqan Salohiddin davrida Falastin, Misr, Hijoz va Yamanda ko'plab madrasalar, ko'chalar, masjidlar, ko'priklar, qal'alar va hammomlar qurilgan. Ulardan eng muhimlari Qohira devorlari va uning qal'asi, Nil daryosi ustida qurgan ko'priklari, Bahru Yusuf nomli kanallari, Amr ibn Os masjidi, Qoya gumbazi qurilishi va Masjid ul-Aqsoning ta'mirlanishi hisoblanadi. Shuningdek Saydussuada (Salohiyya) Xonaqohva Qohiradagi Salohiyya kasalxonasi ham shu jumladan.⁵ Bu davrda Islom dunyosining barcha joylaridan Ayyubiylar davlatiga oqib kelgan olimlar va talabalar ko'plab ilmiy asarlar yozdilar. Uning faoliyati o'zidan keyin kelgan davlat arboblari o'rnak bo'ldi va Suriya va Misr islom dunyosida muhim ilm markazlariga aylandi. Jahon tarixida munosib obro'-e'tibor qozongan va namunali sulton sifatida namoyon bo'lgan Salohiddin Ayyubiy musulmon tarixining taniqli qahramonlaridan biridir. Mehmet Akif Ersoy uni "Sharqning eng sevimli sultoni", fransuz tarixchisi Champdor "Islomning eng pok qahramoni" deb ta'riflagan. Bir ovozdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, Salohiddin dindor, rahmdil, saxovatli, jilmayuvchi, obro'li, irodali, jasur va ulug'vor odam bo'lgan. Musulmonlar unda ideal sultonni ko'rishgan va salibchilar haqiqiy islomiy qahramonni ko'rishgan deb aytishimiz mumkin. U Sharq va G'arb tarixchilari va yozuvchilari asarlarida maqtovga sazovor bo'lgan. Sultonligi davrida olimlar va ilm-fan namoyondalari bo'lgan kishilar bilan ko'p aloqada bo'lgan va ularni qadrlagan. Bulardan asosiylari uning vaziri Qozi al-Fozil va uning xodimi Imoduddin al-Isfaxoniylardir. U hech qachon biron amiri bilan ziddiyatga bormagan va har doim maslahatchilarining fikrlariga ahamiyat bergan. Uning maslahatchilaridan biri Usoma ibn Munkiz uni Xalifayi Roshidin davrini qayta tiklagan shaxs sifatida tilga oladi.

⁵ Selahaddin Eyyubi. TDV Islam Ansiklopedisi. Istanbul 2009. 337-b

Tarixchilarning fikriga ko'ra, Salohiddin o'z vaqtini ilm-fan, janglar yoki davlat ishlarida o'tkazgan. U Qur'onni yod olgan va yaxshi bilimli bo'lgan. U arab, turk, fors va kurd tillarini bilardi. U amalda Shofiy va aqidada Ash'ariy edi. U sehrgarlarga ishonmadi. Bahouddin Ibn Shaddod uning tarixni bilishi kuchli va madaniyati keng ekanligini va uning majlisidagilar undan boshqa hech kimdan eshitmaganlarini eshitishganini aytadi. Uning adolati, ayniqsa, Ibn Shaddod va Ibn Jubayr tomonidan ta'kidlangan. Uning o'ta saxovatli bo'lganligi va o'lganida uning shaxsiy xazinasidan faqat 1 Misr dinori va 36 yoki 47 Nosiri dirhamlari chiqqanligi qayd etilgan. U salib yurishi paytida askarlarga 12000 ot tarqatgani ayrim manbalarda keltirib o'tilgan.

Xristian Yevropasi ham Sulton Salohiddinni hurmat qilar edi, garchi u salibchilarning asosiy raqibi bo'lsa-da, chunki u uni jasur, jasoratli, raqibiga nisbatan saxiylik va jasorat timsoli sifatida tan olishardi. Salibchilarning asosiy yetakchisi, ingliz qirol xristian Richard I Sheryurak, Salohiddin bilan deyarli do'st bo'lib qoldi, Richard Sulton Salohiddin haqida hayrat bilan gapirardi. Bu ikki tarixiy shaxs - Musulmon Salohiddin va Xristian Richard Sheryurak hayotlarida bir-birlarini faqat bir marta ko'rishgan. O'sha vaqtda Richardni salib yurishida ittifoqchilari tark etishgandi va Richard va Salohiddin o'rtasida o'zaro sulh tuzilgan edi.

Tarix Salohiddinni G'arbning Sharqqa bostirib kirishini to'xtatgan va Islomni himoya qilgan, o'z kuchlarini nasroniylar va G'arb tomon yo'naltirgan g'olib sifatida eslaydi. U tarixga Islomning fazilatlari va aqidalari shaxsiyatida birlashtirgan qahramon sifatida kirdi. Salohiddin bu dunyoni tark etgandan so'ng, merosxo'rlar uning imperiyasini o'zaro taqsimladilar: Misr Al-Azizga, Damashq o'g'li al-Afdalga, Halab az-Zahirga tegdi. Keyinchalik XIII asr birinchi yarmiga kelganda Ayyubiylar davlati ancha zaiflashdi va uning o'rnida mamluklar hukmronligi davri boshlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.M.Tursun. Salohiddin Ayyubiy. –T.: “QAQNUS MEDIA”. 2018.

2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi.II juz.—T.: “Hilol nashr”,2018.
3. Yavuz Bahodir o’gli. Sulton Salohiddin. –T .:Yangi asr avlodi,2020
4. Islom ensiklopediyasi. Zuhridin Husniddinov tahriri ostida.—T.: “O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2004.
5. <https://medinaschool.org>
6. <https://ahlisunna.uz>.
7. Selahaddin Eyyubi. TDV Islam Ansiklopedisi. Istanbul. 2009.